Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 4 (2024) · “Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini ta’minlashning ustuvor yo‘nalishla...

ta’minlashning ustuvor yo‘nalishlari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

Ishlab chiqaradigan sanoat bu – tarmoq yangi mahsulot chiqarish maqsadida modda yoki komponentlarni, materiallarni, garchi ishlab chiqarishning ma’lum turi uchun birdan-bir to‘liq me’zon hisoblanmasa ham, fizik yoki kimyoviy qayta ishlashni o‘z ichiga oladi. 2024- yil 1-yanvar holatiga ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 553,3 trln. so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi 84,4 foizni tashkil etdi.

Xulosa. Tadqiqot natijasida quyidagi xulosa va takliflar ishlab chiqildi. Qishloq xo‘jaligi tarmog`i diversifikatsiyasi mahsulotlar ishlab chiqarishni xilma-xilligini oshirish, dehqon va fermer xo‘jaliklarini qo‘shilgan qiymat yaratishining zamonaviy zanjirlariga samarali integratsiyalashi va ularning moliyaviy barqarorligini oshirishga xizmat qiladi.

Iqtisodiy rivojlanish nafaqat yalpi ichki mahsulotning real o‘sishi bilan bog‘liq balki, u jamiyatning boshqa muhim jihatlariga, masalan, mintaqalararo tengsizlik, innovatsiyalar va yuqori salohiyatli kadrlarga ham bog`liq. Sanoat diversifikatsiyasi qashshoqlikni kamaytirish, texnologik innovatsiyalar, salohiyatli kadrlarning imkoniyatlarini kengaytirish, kapital ta'minoti va tadbirkorlik bilan bog‘liqligini ko‘rishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 20-noyabrdagi “Qishloq xo‘jaligini rivojlantirish xalqaro jamg‘armasi ishtirokida “Qishloq xo‘jaligini diversifikatsiya va modernizatsiya qilish” loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 4021-sonli qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 20-iyundagi “Jahon banki ishtirokida O‘zbekiston Respublikasida meva-sabzavotchilik tarmog‘ini rivojlantirish loyihasini amalga oshirishda qo‘shimcha tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3790-sonli qarori.

1. A.Nasriddinov “O‘zbekiston iqtisodiyotining modernizatsiyasi va diversifikatsiyasi”, Toshkent, Fan va Texnologiya, 2021.

2. F.Rasulov “Barqaror, sanoat va iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish” Toshkent, Yangi Iqtisodiyot, 2022.

3. Jahon banki hisobotlari va statistik ko‘rsatkichlari, O‘zbekiston bo‘yicha ma'lumotlar, 2023.

4. https://stat.uz - O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika Qo`mitasi rasmiy sayti

5. https://www.worldbank.org - Jahon banki rasmiy sayti

HUDUDIY PAXTA-TO‘QIMACHILIK SEKTORIDA INTEGRASION TUZILMALARNI TAKOMILLASHTIRISH

Shamsiyeva Mohigul Olimjon qizi
Buxoro muhandislik-texnologiya instituti tayanch doktoranti

O‘zbekiston paxta-to‘qimachilik sektori mamlakat iqtisodiyotining muhim tarmog‘idir. Ushbu soha nafaqat qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish, balki ularni qayta ishlash va eksport qilishda ham muhim rol o‘ynaydi. Biroq, global raqobatning kuchayishi, bozor talablarining o‘zgarishi va yangi texnologiyalarning joriy etilishi paxta-to‘qimachilik sektorida yangilanish va takomillashtirish zaruratini taqozo etmoqda.

Hududiy integratsion tuzilmalar, ya’ni klasterlar, bu jarayonni tezlashtirishda muhim ahamiyatga ega. Ular ishlab chiqarish jarayonlarini birlashtirish, resurslardan

Published: 23.12.2024

Cite this article: Shamsiyeva Mohigul Olimjon qizi (2024). Hududiy paxta-to‘qimachilik sektorida integrasion tuzilmalarni takomillashtirish. Emro Science and Education, 1(4). https://journal.emro.uz/public/maqola/1007

© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

samarali foydalanish va mahsulot sifatini oshirish imkonini beradi. Klasterlar orqali paxta yetishtirishdan tortib, to‘qimachilik mahsulotlarini tayyorlashgacha bo‘lgan barcha bosqichlarni bir tizimda birlashtirish mumkin. Bu esa nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshirish, balki hududiy rivojlanishni ham ta'minlaydi. Ushbu maqolada hududiy paxta-to‘qimachilik sektorida integratsion tuzilmalarni takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari, muammolari va ularga yechimlar ko‘rib chiqiladi.


Mintaqaviy paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatini yaxshilashda tarmoq va hududiy iqtisodiyotning tamoyillarini asoslash va elementlarini aniqlash muhim ahamiyatga ega. D.M. Begov mintaqaviy paxta-to‘qimachilik klasterining asosiy maqsadi tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish orqali sinergik samaraga erishish uchun majburiy raqobat, investitsion jozibadorlik va innovatsiyalarga yo‘naltirilganlik kombinatsiyasiga erishish ekanligini ta’kidlaydi.[4]

Tarixan klasterlarning raqobat ustunliklarini oshiruvchi eng asosiy xususiyati - bu klaster ichida hamkorlik muhitni, jumladan, paxta-to‘qimachilik texnologik zanjirlari ishtirokchilari o‘rtasidagi samarali va barqaror kompaniyalararo manfaatli munosabatlarni ta'minlaydigan integratsion aloqalarni kuchaytirish evaziga sinergik effektga ega bo‘lish hisoblanadi. Ammo jahon tajribasidan nafaqat agrosanoat majmuasida, balki boshqa sohalarda ham hududiy klasterlarini shakllantirishning yagona sxemasi, qolipi va mexanizmi mavjud emas.

Quyidagilarni Buxoro viloyatida paxta-to‘qimachilik klasterlarining tashkiliy mexanizmlarini takomillashtirish maqsadga muvofiqligi uchun asosiy shartlar va muhim omillar sifatida ajratib ko‘rsatish mumkin:

1. Mintaqada paxta-to‘qimachilik ishlab chiqarishi sohasida mustahkam tarixiy an’analar mavjud;
2. Mintaqa paxta-to‘qimachilik ishlab chiqarishi sohasida hukumat va tadbirkorlik sub’ektlari manfaatlariga birdek mos keladigan uzoq va yaqin kelajakda rivojlantirish mumkin bo‘lgan jiddiy salohiyatga ega;
3. 2022 yil ma’lumotlariga qaraganda viloyat paxta-to‘qimachilik klasterlarida doimiy va mavsumiy ishlaydigan ishlovchilar umumiy soni 22 ming nafarga yaqin kishini tashkil etishi inobatga olinsa paxta-to‘qimachilik klasterlarining ijtimoiy ahamiyati yuksak;
4. Viloyatdagi mavjud paxta-to‘qimachilik klasterlari doirasida 2022 yil natijalariga ko‘ra 358735 ming tonna paxta xomashyosi yetishtirib berilgan;
5. Mintaqaviy paxtachilik tarmog‘ining raqobatbardosh afzalliklari arzon ishchi kuchi va mahsulot sifatining qoniqarliligi hisobiga paxta yetishtirish va qayta ishlashning nisbatan arzonligidir;
6. Buxoro viloyati yirik savdo bozorlari chorrahasida joylashgan: Shimol va Janub, Sharq va G‘arb.

Buxoro viloyatida shakllangan klasterlashtirish tizimining o‘ziga xos xususiyatlari va mavjud reallikdan kelib chiqib paxta-to‘qimachilik klasterlarining qo‘shimcha tuzilmalariga ehtiyoj sezilmoqda. Buxoro viloyatida, bizning fikrimizcha, paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatini takomillashtirishda biznes-analitika markazini tuzish kerak. Uning 3 ta tarkibiy bo‘linmalarini tashkil etish taklif etiladi: klasterni rivojlantirish infratuzilmasining asosiy elementlari sifatida ushbu biznes-analitika markazi DXSH (davlat xususiy sherikchilik) asosidagi eksport salohiyatini rivojlantirish markazi, ilmiy-ta’lim markazi, loyihaviy boshqaruv markazi kabilarni o‘z ichiga oladi. (1-rasm)



1-rasm. Paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatini takomillashtirishda biznes-analitika markazi tuzilmasi

Biznes-analitika markazini paxta yetishtiruvchilar va paxtani qayta ishlovchi korxonalarning notijorat sheriklik shaklidagi uyushmasi shaklida tuzish va boshqaruv birgalikda amalga oshirilish maqsadga muvofiq. Fikrimizcha, yangi taklif etilayotgan biznes-analitika markazi xarajatlari mahalliy byudjet tomonidan qoplanishi va uning tarkibidagi loyihaviy boshqaruv markazining xarajatlari esa, manfaatdor tomonlarning buyurtmalari asosidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga sarf-xarajatlari, shuningdek, davlat ilmiy-texnika dasturlari doirasidagi grant mablag‘lari, xalqaro va xorijiy donor tashkilotlarning grantlari mablag‘lari doirasidagi manbalardan qoplanishi ko‘zda tutiladi.

Biznes-analitika markazining asosiy maqsadi Buxoro viloyatida joylashgan paxta-to‘qimachilik klasterlari ishtirokchilari, ta'lim va ilmiy muassasalar, ishlab chiqarish va boshqa strategik hamkorlarni yagona maqsad sari, ya’ni paxta-to‘qimachilik klasterlarining xalqaro bozorlarda raqobatbardoshligini oshirish yo‘lida birlashtirishga qaratilgan. Loyihali boshqaruv asosida ishlar tashkil etiladi. Paylar asosida tashkil etiladi.

Davlat organlari klasterlarni tashkiliy rivojlantirishga ko‘maklashishi kerakligi nuqtai-nazaridan klasterlar ichida va klasterlararo allaqachon o‘rnatilgan aloqalar va ularning resurs bazasidan foydalanish va rasmiylashtirish bo‘yicha ishlarni optimallashtirishga maksimal harakat qiladi.

Ushbu tashkiliy tuzilmani tashkil etishdan avvalambor, sohaga dahldor viloyat boshqarmalari, viloyat agrosanoat majmuasini rivojlantirish va tashqi iqtisodiy va tashqi savdo sohasidagi mahalliy boshqaruv organlari, paxta-to`qimachilik texnologik zanjirining barcha bosqichlari ishtirokchilari (fermer, dehqon xo‘jaliklari, hatto tomorqa xo‘jaliklari, sanoat korxonalari, klaster tuzilmalari), oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari, kollejlar, mavjud uyushmalar, mintaqaviy xoldinglarning boshqaruv kompaniyalari, mahalliy, milliy, xorijiy va xalqaro miqyosdagi moliyaviy muassasalar, yordamchi korxonalar qatoriga kiruvchi savdo kompaniyalari, mineral o‘g‘itlar, mashina va uskunalar, idishlar va qadoqlash ishlab chiqaruvchilari va yetkazib beruvchilari, konsalting kompaniyalari:, xom ashyo va asbob-uskunalar etkazib beruvchilar, litsenziyalash va nazorat laboratoriyalari (xususiy va davlat) va boshqalar manfaatdor bo‘lishlari mumkin. Ushbu tashkiliy tuzilma nafaqat yuridik shaxslar, balki jismoniy shaxslarning ham uyushmaga qo‘shilish imkoniyatini beradi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrda qabul qilingan PF-158-sonli “O‘zbekiston-2030 strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” farmoni
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 22.07.2024 yildagi PF-103-sonli “Paxtachilik sohasi korxonalarining iqtisodiy-moliyaviy holatini yaxshilashga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni. https://lex.uz/docs/-7032178
4. Бегов Дилшод Мирзомуродович. Эффективность формирования регионального хлопково-текстильного кластера (на материалах Согдийской области). Диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Душанбе – 2020. Стр.162
5. Р.И. Исроилов, Р.Р. Хожиматов. Пиллачилик соҳасида кластер тизимини ташкил этишнинг аҳамияти ва унинг ўзига хос хусусияти. НамДУ илмий ахборотномаси - Научный вестник НамГУ 2019 йил 4-сон. 99-108 бет
6. А.А.Ибраимова. Разработка содержания карт агропромышленных кластеров Республики Узбекистан. "Экономика и социум" №5(108) 2023. Стр.64
7. Х.А.Алимова, А.Ю.Рахимов, Н.Н.Набиджанова, Ж.А.Ахмедов. Рақобатбардош тайёр маҳсулотлар ишлаб чиқаришнинг асослари. Textile Journal of Uzbekistan №3/2020 стр. 39.

O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTINI MODERNIZATSIYA VA BARQAROR RIVOJLANTIRISHNI SA'MINLASH SHAROITIDA FAN, PEDAGOGIKA, TA'LIM VA INNOVATSIYALARNING ASOSIY JIHATLARI

Isabekova Janna Abduseyt qizi
CHDPU Gumanitar fanlar fakulteti Qozoq tili adabiyot yo‘nalishi 1-bosqich talabasi
Sa’dullaeva Mahfuza Husenovna
CHDPU Gumanitar fanlar fakulteti Tarix kafedrasi o‘qtuvchisi

Annotatsiya: Mazkur ishda O‘zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya qilish va barqaror rivojlantirish jarayonida fan, pedagogika, ta’lim hamda innovatsiyalarning o‘zaro aloqasi va ahamiyati tahlil qilinadi. Iqtisodiy islohotlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun ilm-fan yutuqlarini amaliyotga joriy etish, kadrlar tayyorlash tizimini modernizatsiyalash va ta’lim sohasida innovatsion yondashuvlarni tatbiq etish zarurligi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar:O‘zbekiston iqtisodiyoti, modernizatsiya, barqaror rivojlanish, fan, pedagogika, ta’lim, innovatsiyalar, iqtisodiy islohotlar, kadrlar tayyorlash, ta’lim tizimi, pedagogik texnologiyalar, innovatsion yondashuv, barqarorlik, integratsiya.

Annotation: This study examines the interrelation and significance of science, pedagogy, education, and innovations in the process of modernizing and ensuring the sustainable development of Uzbekistan's economy. It substantiates the necessity of integrating scientific achievements into practice, modernizing the system of personnel training, and applying innovative approaches in the field of education for the successful implementation of economic reforms.

Keywords: Uzbekistan’s economy, modernization, sustainable development, science, pedagogy, education, innovations, economic reforms, personnel training, education system, pedagogical technologies, innovative approach, stability, integration.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va barqaror rivojlantirish jarayonlari mamlakatni global maydonda raqobatbardosh davlatga